

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2021**

**2-son**  
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqsa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



## TAHRIRIYAT

**4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



## TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Sh. Mardonov, O. Jabborova	<b>6</b>	Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
A. Abdullayev	<b>9</b>	Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
D. Maxmudova	<b>12</b>	Maktabgacha yoshdagи bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
M. Musurmonova	<b>16</b>	Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
R. Musurmanov, M. Musurmonova	<b>20</b>	Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
F. Ochilov	<b>23</b>	Umumiyo'rta ta'llimmaktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
B. Axmadaliyev	<b>27</b>	Umumiy o'rta ta'lim mabkalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakkantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova	<b>31</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'ynlarining roli
U. Shermatova	<b>35</b>	Millat ruhini saqlash yo'lida
F. Atabekov	<b>39</b>	Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashhg'ulotlarining o'mni
O. Jabborova	<b>43</b>	Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limgni rivojlanitirishning pedagogik muammolari
M. Achilova	<b>46</b>	Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
D. Po'latova	<b>50</b>	Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
Z. Umarova	<b>54</b>	Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



## TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

M. Abdullayeva	<b>57</b>	Pedagogik va tarbiyaviy ishlар metodikasi
G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov	<b>61</b>	Uchinchi tartibli tenglamalar
X. Gulyamova	<b>65</b>	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
R. Nosirova	<b>69</b>	Maktabgacha ta'limga metakognitiv ko'nikmalarni shakkantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni mакtabga tayyorlash



## ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

D. Mutalova	<b>73</b>	Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
L. Bolievа	<b>76</b>	Oliy ta'limga "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

---

**Fozil ATABEKOV,**

Chirchiq davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi v.b. dotsenti

## **BOLA TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA JISMONIY TARBIYA MASHG’ULOTLARINING O’RNI**

### **Annotatsiya**

Maqolada mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga qaratilayotgan e’tibor, jismoniy tarbiya va sportni bola tafakkurining rivojlanishiga ta’siri to‘g’risida fikrlar yuritilgan. Jismoniy tarbiya darslarini va mashg’ulotlарini tashkil qilishda dars samaradorligini oshirishga qaratilgan usullardan foydalana olish malakasiga ega bo‘lish haqida fikr-mulohazalar kiritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Uslub, dars, talab, tashkil etish, rivojlanish, mashg’ulot, harakatlarga o’rgatish, aqliy qobiliyat, axloqiy va estetik tuyg’ular.

В статье говорится о том, что внимание, уделяемое физической культуре и спорту в нашей стране, корректирует влияние физической культуры и спорта на развитие мышления ребенка. При организации уроков и занятий по физической культуре включаются отзывы о умении пользоваться методами, направленными на повышение эффективности урока.

**Ключевые слова.** Стиль, урок, требование, организация, развитие, обучение, обучение действиям, умственные способности, нравственные и эстетические чувства.

The article says that the attention paid to physical culture and sports in our country corrects the influence of physical culture and sports on the development of a child’s thinking. When organizing lessons and physical education classes, feedback on the ability to use methods aimed at improving the effectiveness of the lesson is included.

**Key words.** Style, lesson, requirement, organization, development, training, action training, mental ability, moral and aesthetic feelings.

**O**zbekistonda ham sport va jismoniy tarbiyaning rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Sharq mutafakkirlarining konseptual-metodologik merosidan, xalq pedagogikasi an'analaridan diniy tarbiya jarayonida xalqimiz Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug’bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarining jismoniy tarbiyaga oid hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan va ilmiy asarlardan samarali foydalanib kelgan. Chunonchi, tibbiy olamning sultonı Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunları” asarida “Jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug‘ullangan odam hech qachon davolanishga muhtoj bo‘lmaydi”, deya aytib o’tgan.

Ulug’ munajjim va davlat arbobi Mirzo Ulug’bekning pedagogik qarashlari diqqatga sazovordir. Uning “Farzandingiz sog‘lom va baquvvat bo‘lib o’sishini istasangiz, uni kichik yoshdan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullantiring va chiniqtiring”, degan so‘zlarining ahamiyati beqiyosdir.

Jismoniy tarbiya jarayonida bolalarni harakatga o’rgatish tarbiyachining bevosita rahbarligi hamda uning kuzatuvi ostidagi bolalarning mustaqil faoliyatida amalga oshiriladi. Harakat faoliyatiga o’rgatishda bolaning anglash, irodaviy va emotsiyonal kuchlari rivojlanadi hamda uning amaliy harakat ko’nikmaları shakllanadi. Harakatlar-

ga o'rgatish bola ichki dunyosi his-tuyg'usi, tafakkuri, asta-sekin shakllanadigan dunyoqarashi, axloqiy fazilatlariga, bolalar tomonidan bajariladigan, salomatlik va umumjismoniy rivojlanish uchun foydali bo'lgan harakat faoliyatiga maqsadga yo'nalgan tarzda ta'sir etadi.

Bolalar bilan ishlashta ularning yosh xususiyatlari hisobga olish juda zarur, bolaning ongli harakat faoliyatida asqotadigan ayrim bilimlar; bolani harakatlarga o'rgatuvchi faoliyat metodlari, faoliyat va ularni amalga oshirishning malaka va ko'nikmalari haqidagi bilimlar birligi ish jarayonlaridan kelib chiqqan holda tarkibiy qismlarni tashkil etadi. Qismlardan biri ijodiy faoliyat tajribasi hisoblanadi. Bolalikdan mustaqil fikrlashga o'rgatilmagan va hamma narsani tayyor berilgandan so'ng o'zlashtiradigan kishi unga tabiat tomonidan berilgan sifatlarni namoyon qila olmaydi. Shuning uchun jamiyat yosh avlodning ijodiy faoliyatga o'rganishiga tamoman befarq qarab turolmaydi. Harakat faoliyatini tarbiyalash jarayonida kattalar (ota-onalar, tarbiyachilar) bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlari hisobga olgan holda, ular oldiga yangi harakat vazifalarini qo'yadilar.

Bolaning mashqlar jarayonida yangi harakat vazifalarini tobora hal eta olishi va shu bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan katta imkoniyatlar harakatlar xarakteri va sifatini o'zgartiradi. Bu yosh davri uchun juda xarakterli bo'lgan narsa yangi mashqlarga o'rgatish jarayonida go'yo bir aylanib yangicha sifat kasb etadi. Chunonchi, bolaning yurishi dastlabki paytda va ikkinchi yilning oxirida butunlay farq qiladi. Har bir sohada rivojlantirish o'zidan oldingi yashash shakllarini inkor etmasdan kechishi mumkin emas. Bunday murakkab rivojlanish jarayoni tashqi va ichki sharoitning o'zaro aloqadorligida to'xtovsiz kechadi.

Qiyinchiliklarni yengish va yangi vazifalarini hal etish bolada ijobiy emotsiyonal kayfiyat hosil qiladi. Bu erishilgan maqsad, tarbiyachi bahosiga muvofiq yangi muskul sezgilari tufayli yuzaga keladi. Paydo bo'lgan o'zgarishlarni mustahkamlash yanada yuksakroq yutuqlarga intilish uyg'onishiga xizmat qiladi. Bu murakkab jarayon doimo tarbiyachi nazorati ostida bo'lishi kerak. Bir tomonidan bolaning yangi harakat vazifasini tushunib olishini ta'minlash lozim, ikkinchi tomonidan bolada mustaqillik va uni mavjud real harakat imkoniyatlari hamda yuzaga keluvchi qiziqish, emotsiyalari asosida amalga oshirish, g'ayratini uyg'otish zarur.

Ta'limga boladan diqqatni bir joyga to'plashni, faol tasavvur, faol fikrlashni, xotirani rivojlantirishni talab qiladi: masalan, agar ta'limga jarayoni qiziqarlilik kasb etib, emotsiyonal ruhda bo'lsa - emotsiyonal; harakat namunasi tarbiyachi tomonidan obrazli tarzda ko'rsatilsa va bolalar tomonidan bajarilsa - obrazli; harakatli o'yin va ularni mustaqil bajarishda barcha mashq elementlarini bajarish izchilligi vazifalari tushunib va eslab qolinsa, og'zaki mantiqiy mashqlar bolalarning o'zlarini tomonidan amalda bajarish bilan bog'liq bo'lsa – motor harakat. Buning uchun ta'limga erkin bo'lishi kerak, shundagina mashqlarni ongli, mustaqil bajarish mumkin.

Bolalarga ta'limga berishda axloqiy tarbiya, bolaning ma'naviy tuyg'usi va ongini shakllantirish, uning oliyanoblik va o'zaro yordam, maqsadga intilish, halollik,adolatlik kabi axloqiy-irodaviy sifatlarini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir.

To'g'ri harakatlarga o'rgatishning butun jarayoni bolalarda estetik hislarni tarbiyalaydi. Bolalar asta-sekin egallab boradigan chiroyli harakatlar, aniq saflanish, ularning yoshiga xos o'yin obrazlarining ijodiy ifodaliligi, o'yinlarda she'riy matnlari, o'yin boshlanmalari, sanashmachoqlar – bularning hammasi bolalarda estetik didni tarbiyalash vazifasiga xizmat qiladi. Bolalar va tarbiyachilarning kostyumlari, jismoniy tarbiya

---

qo'llanmalari va hokazolarning tashqi bezatilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etish bolalarni ular kuchi yetadigan mehnat harakatlarida mashq qildirish imkonini beradi.

Tarbiyachi bolalardan jismoniy tarbiya jihozlarini o'zları tartibli va toza saqlashlari ni (ixcham o'rالgan bayroqchalar, dazmollangan lenta, ro'molchalar va h.k.) muntazam talab qilib turadi. Bu haqida birinchi navbatda, navbatchilar qayg'uradilar va zarur buyumlarni avaylab joylashtiradilar. Shu bilan birga ular barcha bolalar foydalanishlari qulay bo'lishi uchun predmet va inventarlarning joylashish tartibini ham e'tiborda tutadilar. Bolalar sharlar, to'plar va hokazolarni vaqtiga vaqtiga bilan yuvib, yirik jihozlarni artib turadilar. Bunday tadbirda barcha tarbiyalanuvchilar tarbiyachi rahbarligida ishtirok etadilar.

Shunday qilib, harakatlarga o'rgatish jarayonida bolalarda aqliy qobiliyat, axloqiy va estetik tuyg'ular rivojlanadi, o'z faoliyatiga ongli munosabat va shu bilan bog'liq ravishda maqsadga intilish, uyushqoqlik shakllanadi. Bularning hammasi o'zaro alo-qadorlikda ta'lim jarayoniga umumiyligi yondashishni amalga oshirilishi lozim. Mazkur jarayon har tomonlama rivojlangan shaxsnинг shakllanishiga xizmat qiladi.

Sport hozirgi kunda barcha xalqlarning hayot talabi va ehtiyojiga aylanib qolmoqda. Chunki u kishilarning har tomonlama chiniqishini ta'minlabgina qolmay, balki ruhan tetik, ma'nан boy, axloqan pok, yuksak madaniyatli, mustahkam irodali qilib ham tarbiyalaydi. Sport turlari xilma-xildir. Lekin ularning har biri ham kishilarda yuqoridağı xislatlarni tarbiyalash uchun sport mashg'ulotlarida uzluksiz shug'ullanish va musobaqalarda qatnashishini talab etadi. Sport faoliyatining qonuniyatlarini va xususiyatlarini, sportchi shaxsini bilmasdan turib, biz sport mashg'ulotlarining foydalı metodlarini ishlab chiqara va ish faoliyatiga bo'yundira olmaymiz. Sport faoliyati juda katta aniqlik, his qilish hamda idrok etish nafisligiga bog'liqdir.

Jismoniy harakat bolaning butun organizmini normallashtiradi, buzilgan fiziologik faoliyatining tiklanishiga yordam beradi, aqliy va jismoniy faolligini oshiradi. Shuni aytish zarurki, turli yoshdagи bolalar uchun jismoniy tarbiya va sport – hayot va faoliyat ko'rsatkichidir. Shuning uchun o'qituvchi yoki murabbiy tomonidan o'quvchilar ruhiyatini ko'taruvchi holatlarni yaratish zarur. Hayotda uchraydigan murakkab holatlarni misollar asosida, bolalar psixologiyasiga ta'sir etish yo'li bilan, jismoniy tarbiya va sport orqali, uzoq umr ko'rish g'oyasini bola ongiga singdirish katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida bolalarda jismoniy mashqlarni muvaffaqiyatlari bajarish qobiliyatini rivojlanadi. Mashg'ulot jarayonlari ularda yuksak sport mahoratini egallashlariga, jismonan baquvvat bo'lishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Sportning vazifasi bolalarga jismoniy mashqlarni bajarishning turli usullarini egallashga yordamlashishdir.

Harakat tasavvurlariga ega bo'lmagan bola eng oddiy jismoniy mashqlarni ham bajara olmaydi. Harakat to'g'risidagi tasavvurlar doimo murakkab bo'lib, u ko'rish harakat elementlari birligidan tashkil topadi. Uzoq davom etgan harakatlar dastlab ko'z kuzatishlari, keyin muskul harakat tasavvuri bilan bog'lanadi. Bola ongida ko'z tasavvuri paydo bo'lganda o'z-o'zidan muskul harakatlari paydo bo'ladi. Shu sababli, harakatni ko'rsatish, har doim ham uning bola tomonidan to'g'ri bajarilishiga olib kelavermaydi. Muskul harakat tasavvurlarini hosil etish uchun jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida aniqlab olish zarur.

Bugungi kunda, jismoniy tarbiya va sportni bola tafakkurining rivojlanishiga ta'sirini o'stirishda o'qituvchi va murabbiylar quyidagi nazariy bilim asoslарini egallashlari kerak.

Bu – o'qituvchiga har bir mashq bajarilgandan so'ng, yakun chiqarishga, bolarlar e'tiborini mashqni yaxshiroq bajarishga, kamchilik va xatolarini to'g'rilashga imkon beradiki, bu ta'lif-tarbiya jihatdan juda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham har bir jismoniy tarbiya o'qituvchisi va sport murabbiysi yil davomida o'quvchilar salomatligini mustahkamlash yo'lida quyidagilarni amalga oshirishlari lozim. Jumladan:

– bolalarda yuksak axloqiy, ma'naviy, irodaviy fazilatlarni, mehnatsevarlik, faoliyknii tarbiyalashga;

– jismoniy baquvvat, epchil, sog'lom, kuchli va qiyinchiliklarni yengishga qodir etib tarbiyalashga;

– hayotiy muhim malaka va ko'nikmalar (yugurish, yurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish va tushish, suzish, sayohat asboblaridan foydalana olish)ni shakllantirishga;

– jismoniy mashqlar gigiyenasi, anatomiyasi va fiziologiyasiga doir bilimlarni boyitishga;

– sport bo'yicha targ'ibotchilik, tashkilotchilik, instruktorlik malakasini singdirish, harakatlarning estetikasini to'g'ri talqin qilishga odatlantirishga.

Mazkur yo'sinlarni jismoniy tarbiyani tashkil etishda, hamma jihatlaridan to'liq foydalangan taqdirdagina, muvaffaqiyatli ravishda hal etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya mutaxassislari o'z ustida tinimsiz mehnat qilishlari, izlanishlari, o'quvchilarining bilim samaradorligini oshirishda kerakli malaka va ko'nikmalarni rivojlantirib borishlari zarur. Shundagina, jismoniy tarbiya va sportni bola tafakkurining rivojlanishiga, jismoniy sifatlarining o'sishiga, ularning texnik va taktilik harakatlarni o'rganishiga yaqindan yordam beriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *Shabbozov D.R. Sport psixologiyasi. Termiz, 2008.*
2. Адизова Т.М. *Психокоррекция: Учебное пособие.* – Т., 2006.
3. Берништейн Н.А. *Физиология движений и активность.* – М., 1990